

ONA TILI TA'LIMIDA TAFAKKURNI RIVOJLANTIRUVCHI TOPSHIRIQLAR BILAN ISHLASH METODIKASI

Axmadjanova Tamanno Hasanboy qizi

tamannoaxmadjanova@gmail.com

Qo'qon davlat universiteti tayanch doktaranti

Annotatsiya: Ushbu tezisimizda ona tili ta'limida tafakkurni rivojlantiruvchi topshiriqlar bilan ishlash metodikasini o'rganadi. Zamonaviy ta'limda tafakkur rivojlantirish – o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va mantiqiy tahlil qobiliyatlarini shakllantirishning asosiy yo'nalishi sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Ona tili ta'limi, tafakkur rivojlantirish, topshiriqlar metodikasi, Bloom taksonomiyasi, tahliliy topshiriqlar, ijodiy topshiriqlar, muhokamaviy faoliyat, ta'lim tajribasi, o'quvchilar tafakkuri, O'zbekiston ta'lim standartlari.

МЕТОДОЛОГИЯ РАБОТЫ С ЗАДАНИЯМИ, РАЗВИВАЮЩИМИ МЫШЛЕНИЕ, В ОБРАЗОВАНИИ НА РОДНОМ ЯЗЫКЕ

Ахмаджанова Таманно

tamannoakhmadjanova@gmail.com

Кокандский государственный университет

Аннотация: В данной диссертации изучается методология работы с заданиями, развивающими мышление, в образовании на родном языке. В современном образовании развитие мышления рассматривается как основное направление формирования у учащихся критического мышления, креативности и навыков логического анализа.

Ключевые слова: Образование на родном языке, развитие мышления, методология заданий, таксономия Блума, аналитические задания, творческие задания, дискуссионные мероприятия, педагогический опыт, мышление

учащихся, узбекские образовательные стандарты.

METHODOLOGY OF WORKING WITH THINKING DEVELOPING TASKS IN MOTHER LANGUAGE EDUCATION

Akhmadjanova Tamanno

tamannoakhmadjanova@gmail.com

Koqand State University, basic doctoral student

Annotation: This thesis studies the methodology of working with thinking developing tasks in mother tongue education. In modern education, thinking development is considered as the main direction of forming students' critical thinking, creativity and logical analysis skills.

Keywords: Mother tongue education, thinking development, task methodology, Bloom's taxonomy, analytical tasks, creative tasks, discussion activities, educational experience, student thinking, Uzbek educational standards.

KIRISH

Ona tili ta'limi bolalarning til ko'nikmalarini shakllantirish bilan birga, ularning tafakkurini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Zamonaviy ta'lim tizimida tafakkurni rivojlantirish – bu faqat bilimlarni eslab qolish emas, balki tahlil qilish, sintez qilish va muammolarni hal etish qobiliyatlarini shakllantirishdir. O'zbekiston ta'lim standartlariga ko'ra, ona tili darslari orqali o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va mantiqiy tafakkurini kuchaytirish zarurdir. Biroq, an'anaviy metodlar ko'pincha passiv o'rganishga asoslangan bo'lib, bu tafakkurni to'liq rivojlantirmaydi.

Maqsad – o'qituvchilarga amaliy vositalar taqdim etish va ushbu yondashuvning samaradorligini baholash.

Ona tili ta'limida o'quv topshiriqlari muhim ahamiyat kasb yetadi, shu sababli mazkur jihatga metodikaga doir tadqiqotlar olib borilganda alohida ye'tibor

qaratilishi lozim. Bu borada dunyo olimlari jiddiy tadqiqotlarni olib borgan, jumladan, Markaziy Osiyoda ham mazkur mavzu atroflicha o'rganilgan. Ona tili ta'limda faol qo'llanila boshlagan matn bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muammoli ta'lim texnologiyasi muhim ahamiyatga ega. Har qanday matn tahlilini o'quv topshiriqlari orqali muammoli jarayonga aylantirish mumkin. Bunda savol yoki topshiriqni to'g'ri qo'yish kifoya qiladi. Bu o'rinda muammoni echish, olingan natijalarni tekshirish, ularni asl faraz bilan taqqoslash, olingan bilim va ko'nikmalarni tizimlashtirish va umumlashtirish bosqichlari muhim hisoblanadi.

An'anaviy ona tili ta'limida ham o'qitishning reproduktiv metodidan foydalaniladi. U quyidagi xususiyatlarga ega: bilim o'quvchilarga "tayyor" shaklda taklif etiladi; o'qituvchi bilimlarni muloqot qilibgina qolmay, balki uni bayon etadi; o'quvchilar bilimlarni ongli o'zlashtiradilar, uni tushunadilar va eslab qoladilar. O'zlashtirishning mezonlari – bilimlarni to'g'ri ko'paytirish; o'zlashtirishning zarur kuchi bilimlarni takrorlash orqali ta'minlanadi.

Ona tili ta'limi nafaqat til qoidalarini o'rgatish, balki o'quvchilarda tahliliy, ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun ham muhim maydondir. Til va tafakkur o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, til orqali inson o'z fikrlarini ifodalaydi, atrofdagi olamni tushunadi va tahlil qiladi. Shuning uchun ona tili darslarida tafakkurni rivojlantiruvchi topshiriqlar bilan ishlash metodikasi o'quvchilarni intellektual jihatdan har tomonlama kamol toptirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Zamonaviy dunyoda axborot oqimi juda katta. O'quvchilar matnlarni tushunish, ulardan asosiy g'oyani ajratib olish, mantiqiy bog'liqliklarni topish va ma'lumotni baholay olishlari kerak.

-Tilni ijodiy qo'llash, o'z fikrlarini original tarzda ifodalash, hikoya, she'r, esse yozish orqali ijodiy tafakkur rivojlanadi.

-Matndagi dalillarni, muallifning nuqtai nazarini baholash, xulosalar chiqarish va o'z pozitsiyasini asoslash orqali tanqidiy fikrlash shakllanadi.

-Til vositasida muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, yechimlar taklif qilish va

ularni asoslash qobiliyati rivojlanadi.

-Fikrlarni aniq, ravon va mantiqiy ifodalash orqali samarali muloqot qilish ko'nikmalari takomillashadi.

Tafakkurni rivojlantiruvchi topshiriqlar bilan ishlashning asosiy tamoyillari:

-O'quvchilar passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi bo'lishlari kerak.

-O'quvchilarni fikrlashga undaydigan, bir necha yechimga ega bo'lishi mumkin bo'lgan muammoli savol va vaziyatlar qo'yish.

-O'quvchilarni o'z fikrlash jarayonlari haqida o'ylashga, "Men qanday fikrladim? Nima uchun bu xulosaga keldim?" kabi savollarga javob izlashga undash.

-Har bir o'quvchining qobiliyatiga mos, turli murakkablikdagi topshiriqlarni taklif qilish.

-Guruhda ishlash, munozaralar va o'zaro fikr almashish orqali bir-biridan o'rganish imkoniyatini yaratish.

Tafakkurni rivojlantiruvchi topshiriqlar turlari va misollar:

"Klaster" (aqliy hujum): Berilgan tushuncha yoki so'z atrofida o'quvchilarga bog'liq so'zlar, g'oyalar va assotsiatsiyalarni yozishni taklif qilish.

"Venn diagrammasi": Ikki yoki undan ortiq tushuncha, qahramon, hodisa o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni topish.

"T-jadval": Matndagi biror muammo yoki hodisaning ijobiy va salbiy tomonlarini ikki ustunda jamlash.

"Matnni tahlil qilish": Asosiy g'oyani aniqlash, muallifning maqsadini topish, matnning tuzilishini o'rganish, uning janr xususiyatlarini tushuntirish.

"Xulosa va umumlashtirish": Matnni qisqa va aniq qilib o'z so'zlari bilan qayta hikoya qilish yoki uning mazmunini bir-ikki gapda ifodalash.

"Muallif pozitsiyasini aniqlash": Matndagi muallifning nuqtai nazarini topish va unga baho berish, o'z munosabatini bildirish.

"Dalillar va isbotlar": Matndagi asosiy g'oyalarni qo'llab-quvvatlovchi yoki rad etuvchi dalillarni topish.

"Munosabat bildir": O'qilgan matndagi voqea, harakat yoki xarakterga o'z shaxsiy munosabatini yozma yoki og'zaki tarzda asoslab berish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[1] Axmedova M.E. Oliy filologik ta'limda o'quv topshiriqlaridan foydalanishning lingvometodik va didaktik xususiyatlari // Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. Ilmiy jurnal. - Urganch, 2022. - №2 (86). – B. 470-472. 2016.29.12/4

[2] Леонтев А. Проблемы развития психики.—М.: Педагогика, 1972. —576 с.

[3] Розиков О.Р. Теоретические основы оптимального применения системы учебных задач в обучении школьников (на материалах гуманитарных предметов). Автореферат дисс док. пед. наук. — Тбилиси, — 1986. — 50

[4] Saidov M. O'zbek maktablarining 5-sinflarida ona tili ta'limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi: ped. fan. nomdi diss. avtoref.TDPU. —Toshkent. 2000. — 25 b.

[5] Лернер И. Я. Дидактические основы методов обучения Текст. / И. Я. Лернер. — М.: Педагогика, 1981. — 186 с.

[6] Ona tili: 6-sinfi uchun darslik / I. Azimova, K. Mavlonova, S. Quronov Sh. Tursunov, N.Hakimova, M.Siddiqov.—Toshkent: Respublika ta'lim markazi. 2022.- 24- b.

[7] Qodirov M., Ne'matov H. Mengliyev B. Va boshq. Ona tili. 8-sinflar uchun darslik. — T.: Cho'lpon. 2019. 6 b.

[8] Непп М., Холл Д. Невербальное общение. Мимика, жесты, движения, позы и их значения —М., 2007. —512 с.

[9] Зимняя И.А. Личностно-деятельностный подход в обучении как фактор гуманизации образования // Русский язык за рубежом. 1991. -№ 3. - С. 91-95